

Z. T. TAXIROV

**NASHR JARAYONI
ASOSIY
BOSQICHLARI**

“Tafakkur Bo’stoni”
Toshkent – 2015

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

Z.T. TAXIROV

**NASHR JARAYONI
ASOSIY BOSQICHLARI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan 5A220104 – “Nashirlik ishi va muharrirlik” ixtisosligi
magistrantlari uchun darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan*

“TAFAKKUR BO‘STONI”
Toshkent - 2015

UO‘K: 655.3(075)

76.17

T28

Taxirov Z.

Nashr jarayoni asosiy bosqichlari [Matn] : darslik / Z.T. Taxirov –
Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2015. -272 b.

KBK-76.17ya73

Ushbu darslik 5A220104 – “Noshirlik ishi va muharrirlik” ixtisosligi bo‘yicha magistrantlarga mo‘ljallangan. Darslikdan 1-bosqich magistrantlariga “Nashr jarayoni asosiy bosqichlari” fanidan ma‘ruzalar o‘qish, amaliy mashg‘ulotlar olib borishda foydalaniladi. Darslikda hozirgi nashriyot-matbaa ijodiy uylarida kitob nashri jarayonidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladigan ishlar va ulardagi muharrir ishtiroki, shuningdek badiiy ijod bilan tanishadilar.

Darslik magistrantlar, soha izlanuvchilari uchun va ilmiy tadqiqot ishlarida ham foydadan holi emas. Shuningdek, darslikdan nashriyotlar, ommaviy axborot vositalarining tahririyatlarida qo‘lyozma matni ustida ishlovchi muharrirlar va amaliyotchi jumalistlar ham foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari universitetlar va pedagogika institutlari filologiya fakultetlari bakalavriant va magistrantlariga ham mo‘ljallangan.

Taqrizchilar: Qudrat Irnazarov – tarix fanlari doktori

Azim Babaniyazov – filologiya fanlari nomzodi,

Mas’ul muharrirlar:

Mahliyo Mirseatova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Ravshan Omonov – O‘zMU Adabiy tahrir ilmiy maktabi
rahbarining o‘rinbosari, magistratura
rahbari

ISBN - 978-9943-4546-2-0

© “Tafakkur Bo‘stoni”, 2015

© Z.T. Taxirov, 2015

© Ilm - Ziyo nashriyot uyi

KIRISH

Nashr jarayoni deganda, bugungi kunda, kitobshunoslik sohasidagi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, qonuniy ketma-ketlikka ega bosma nashrni tayyorlash va chop etish ishlari tushuniladi. For ma’noda tayyor qo‘lyozmaning nusxasini ko‘paytirish anglashiladi. Har holda matn bosish dastgohi ixtiro qilingunga qadar kitobat ishi shunday bo‘lgan. Noshirlik ishida texnika va texnologiyaning rivoji mazkur jarayonni muayyan bosqichlardan tashkil topishiga olib keldi. O‘tmish tajribasini umumlashtirgan holda bugungi kun noshirlik ishi nashr jarayonini aniq belgilab, nashriyotlarning adabiy asar chiqarishini tashkillashtirishdagi faol ishtiroki alohida ta’kidlanadi. Bundan tashqari bosma nashrlar chiqarishdagi muharrirning o‘rni va ahamiyati yuksak baholanadi. Nashr jarayonining boshlanishi mavzuli reja tuzish bo‘lsa, kitobni tarqatish va kitobga jamiyatning baho berishi yakunlovchi bosqich hisoblanadi.

Nashr jarayonini umuman (xususan, bitta asarni chiqarish ham) to‘rt bosqichga, shartli ravishda, ajratish mumkin.

Birinchi bosqichda – tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi, ya’ni muallif qo‘lyozmani topshirgunga qadar mavzuli reja tuziladi. Bu bosqichda muharrir albatta mavzuli rejani tuzish va tasdiqlashda faol ishtirok etadi. U mavzu yuzasidan muallif bilan suhbatlashadi, muhokama yuritadi, bo‘lajak kitob rejasi ustida ishlaydi. Muallif

taklifiga ko'ra asar qismlari bilan tanishib chiqadi, ayrim muammolarni xal etish va kamchiliklarni to'g'rilashda muallifga ko'maklashadi.

Ikkinchi bosqich – *tahrir bosqichi* muallif qo'lyozmani nashriyotga taqdim etishdan, to uni ishlab chiqarishga topshirishgacha bo'lgan ishlarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda kitob taqdirini belgilovchi qarorlar qabul qilinadi: qo'lyozmani nashrga tavsiya etish yoki rad etish masalasi hal etiladi. Qo'lyozmani ichki va tashqi taqrizlash, shuningdek qo'lyozmani nashrga tayyorlash amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich – *ishlab chiqarish* bosqichida, asosan kitob yaratish ishlari – bosmahonada amalga oshiriladigan texnikaviy ishlar bajariladi. Lekin bu ishlar muharrirning qat'iy kuzatuv va nazorati ostida bo'ladi. Zero muharrir sifatli mahsulot chiqish uchun nashriyotning eng mas'ul xodimidir.

To'rtinchi bosqich – yakuniy bosqich, kitobni tarqatish va targ'ib qilishdan iborat bo'ladi.

Nashr jarayoni asosiy bosqichlarini noshirlik ishi va tahrir ixtisosligi bo'yicha birinchi bosqich magistrantlariga o'qitishdan maqsad, ularda nashr jarayoni haqida chuqur tushuncha hosil qilish, uning asosiy bosqichlaridagi muharrirning o'rni va ahamiyati bilan tanishtirish va shu yo'l bilan noshirlik ishi bo'yicha malaka hosil qilishdir.

Muallif ijod laboratoriyasini o'rganishning ahamiyati shundaki, bunda muayyan ijodchining ijodiy mahorati, qaysidir asari yoki asarlarining tili va uslubi yoritilibgina qolmaydi, balki ijodchining ijodchilik sohasidagi o'rni ham ayon bo'ladi. Bundan tashqari